# TA’LIM TIZIMIDA YANGI TEXNOLOGIYA VA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

***Mansurova O.O‘.,***GDPI o‘qituvchisi

**Annotatsiyta.** Ushbu maqola ta’lim tizimida yangi texnologiya va innovatsiyalardan foydalanishning ijtimoiy-psixologik omillari haqida so‘z borar ekan, bugungi zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarning kiritilishi va ularni zamonaviylashgan dunyoga tadbiq etish borasida olib borilayotgan islohotlar haqida ma’lumot beradi.

**Kalit so‘zlar*:*** texnologiya, innovatsion, konsepsiya, manbalar, tashkiliy, metodik, psixologik, pedagogik jamoalar, parametrlari, innovasiyon o‘qitish, innovatsion ta’lim.

**Abstract:** This article, speaking about the socio-psychological factors of using new technologies and innovations in the education system, informs about the introduction of innovative technologies in the modern education system and the ongoing reforms to introduce them into the modern world.

**Key words:** technology, innovation, concept, sources, organizational, methodological, psychological, pedagogical teams, parameters, innovative training, innovative education.

Jahon oliy ta’lim tizimida ta’lim berish jarayonida yangi texnologiyalarga asoslangan holda innovatsiyalar va innovatsion faoliyatga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Fan, ta’lim hamda amaliyot orasidagi tafovutni bartaraf etish yo‘lida «Tajriba asosida ta’lim olish» (Experimential learning) g‘oyasi ustuvor bo‘lib qolmoqda. Bu borada «Experiential learning» o‘qitish ta’limni o‘quv sinfidan tashqarida, tajriba tarzida o‘tkazishni taqozo etib, ta’lim oluvchilarni motivlashtirish yo‘li bilan keng jalb etishni nazarda tutadi[64]. Buning uchun ta’lim tizimida yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanishni amalga oshirishning o‘ziga xos psixologik yondoshuvlariga e’tibor berish, bu jarayonni takomillashtirish orqali ta’lim jarayonini yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish masalalari dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanishni amalga oshirishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilib, texnika va texnologiyalarga kiritilgan yangicha yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish orqali ulkan yutuqlarni ta’minlaydigan institut sifatida qarash, ya’ni innovatsion siyosatni amalga oshirish muhim masalalardan ekanligini amaliyot ko‘rsatadi. Innovatsion faoliyat samaradorligida ishlab chiqarishning turli sohalarida mavjud bo‘lgan yuqori natijalarga erishish nazarda tutiladi. Bu borada ta’lim va ishlab chiqarish uzviyligini o‘rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topish va kiritish, innovatsion faoliyatga psixologik tayyor turish yondashuvini shakllantirish yo‘nalishlarda keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

[64] Action Learning – How does it work in practice? MIT Sloan Management. Retrieved 2016-03-16 Archived 2016-03-08 at the Wayback Machine.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimida yangi texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanishning ijtimoiy-psixologik omillari asosida Vatanga muhabbat va cadoqat ruhida tarbiyalash davlat ciyocatining eng muhim uctuvor yo‘nalishlaridan etib belgilangan bo‘lib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi.

Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishida «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish»[65] va «iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakatda amalga oshiriluvchi innovatsion g‘oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi barkamol avlodni tarbiyalash» konseptual g‘oya negizida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida **inson kapitalini rivojlantirish,** sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish muhim vazifalar belgilanganligi ularni amalga oshirishda shaxsning individual qiyofasini to‘laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarning ahamiyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga etarli asos yaratilganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi «Innovatsion faoliyat to‘g‘risida» O‘RQ-630-son, 2021 yil 1 apreldagi O‘RQ-0270-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021 yil 28 avgustdagi «Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 0832-sonli Qarorlari, 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», Farmonlari, hamda boshqa me’yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur ilmiy maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Respublikamiz olimlaridan innovatsion faoliyat muammosi bilan Sh.H.Abdullaeva, V.M.Karimova, D.G.Muxamedova, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, B.M.Umarov, R.S.Samarov, N.S.Safaev, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘ozievlar tadqiqotlarida talabalarning kasbiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan ichki va tashqi omillar va psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan N.L.Podgoretskaya, Y.V.Vertakova, E.V.Galajinskiy, V.A.Gerasimova, V.I.Dolgova, E.F.Zeer, T.N.Іщenko, B.K.Lisin, R.M.Lobatskaya, C.B.Malanova, A.A.Orlov, L.S.Podыmova, V.A.Fedorovlar tadqiqotlarida nnnovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish uchun asos bo‘ladigan individual-psixologik shaxs sifatlari ilmiy tadqiq etilgan.

[65]Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ–60-сонли Фармони. 2022 йил 28 январь.

Xorij olimlari M.Bingham, J.Edmondson, J.R.Nuttin, Y.Peng, A.S.Waterman, J.Turner, S.Stryker, M.Rokeach, C.R.Rogers, G.Hofstede va boshqalar tomonidan innovatsion faoliyat masalasining turli jihatlariga axamiyat qaratilgan.

Ta'lim tizimida innovasiyalarni guruhlarga ajratish, ma'lumotlarni tizimlashtirish uslubiy jihatdan bir qator qo‘layliklarga ega. Bu o‘z navbatida oliy ta'lim muhitida talabalarni innovasion faoliyatga yo‘naltirish uchun bir qator qulayliklarni yaratadi. Birinchidan, kasbiy ta'limning asosiy dasturlari doirasida amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlab chiqarish va amaliyot aloqadorligi kontekstida modernizasiyalashtirish ishlarini manzilli kechishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasasining innovasion salohiyati bilan belgilanishi mumkin. Innovasiyaning birinchi guruhdagi xarakteristikasi nisbatan ommaviylashgan bo‘lsa-da, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda ko‘proq pedagogik mazmunlarni mujassam etgan. Ikkinchisi esa oliy ta'lim muassasasining marketing, moddiy ta'minot, axborot resurs hamda professor-o‘qituvchilarning faoliyatini boshqarilishi bilan bog‘liqdir. Shu sababli ikkinchi guruhning xarakteristikasi murakkabroq sanaladi. Chunki boshqaruvda moliyaviy mexanizm, haq to‘lash mexanizmi, ta'lim majmualarini shakllantirish mexanizmi, ta'lim jarayonini uzluksiz takomillashtirish mexanizmi ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda oliy ta'lim muassasalarida o‘tiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar blokidagi fanlarda «Innovasiya va taraqqiyot», «Innovasion g‘oyalarni rasmiylashtirish tartibi», «Innovator talaba shaxsi», kabi mavzularni kiritish, ta'lim muassasasi psixologlarining faoliyati uchun «Innovasion g‘oyalar tashuvchi talabalar» bilan ishlovchi tizim yaratish maqsadida, «Innovasion faoliyat psixologiyasi» mavzusida psixodiagnostik testlar batareyasini tayyorlash va ulardan foydalanishni joriy qilish, talabalarni innovasion faoliyatga yo‘naltirishda, ular bilan «O‘ziga ishonch hosil qilishning asoslari», «O‘z fikrini asoslash texnikasi» mavzularida psixologik treninglar tashkil qilish; «Oila – Mahalla – Ta'lim muassasasi – Yoshlar ishlari agentligi» kabi hamkorlik tizimiga psixologik xizmatni kiritish; talaba-yoshlarda innovasion xulq namunasini shakllantirishda muhim sanalgan komponentlarni belgilash uchun «Innovasion faoliyat psixologiyasi» nomli ta'limiy modulni tayyorlash;talaba-yoshlarda innovasion xulq namunasini shakllantirishda muhim sanalgan komponentlarni belgilash uchun «Innovasion faoliyat psixologiyasi» nomli ta'limiy modulni tayyorlash undan keng foydalanishlarini joriy etish lozim.